

YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA PROKUROR NAZORATINING AMALIYOTI VA MUAMMOLAR TAHLILI.**Babanazarova Shohsanam Akbarali qizi**

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistratura tinglovchisi.

E-mail: shohsanambobonazarova03@gmail.com**<https://doi.org/10.5281/zenodo.19666879>**

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda prokuror nazoratining amaliyoti, uning huquqiy asoslari hamda mavjud muammolar tahlil qilinadi.

Muallif tomonidan prokuratura organlarining iqtisodiy sohada qonun ustuvorligini ta'minlashdagi roli o'rganilib, amaliyotda uchrayotgan tizimli kamchiliklar aniqlanadi.

Xususan, nazorat mexanizmlarining yetarli samaradorlikka ega emasligi, idoralararo hamkorlikning sustligi hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida yuzaga kelayotgan yangi xavf-xatarlar asosiy muammolar sifatida ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijasida prokuror nazoratini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: yashirin iqtisodiyot, prokuror nazorati, qonun ustuvorligi, iqtisodiy jinoyatlar, soliq nazorati, korrupsiya, raqamli iqtisodiyot.

Аннотация. В данной научной статье анализируются практика прокурорского надзора, его правовые основы и существующие проблемы в борьбе с теневой экономикой.

Автор исследует роль органов прокуратуры в обеспечении верховенства закона в экономической сфере и выявляет системные недостатки правоприменительной практики. В частности, отмечают недостаточная эффективность механизмов надзора, слабость межведомственного взаимодействия, а также появление новых рисков в условиях цифровой экономики. По результатам исследования предлагаются научно-практические рекомендации по совершенствованию прокурорского надзора.

Ключевые слова: теневая экономика, прокурорский надзор, верховенство закона, экономические преступления, налоговый контроль, коррупция, цифровая экономика.

Abstract. This scientific article analyzes the practice of prosecutorial supervision, its legal foundations, and existing problems in combating the shadow economy. The author examines the role of the prosecutor's office in ensuring the rule of law in the economic sphere and identifies systemic shortcomings in law enforcement practice. In particular, insufficient effectiveness of supervisory mechanisms, weak interagency cooperation, and emerging risks in the context of the digital economy are highlighted as key challenges. Based on the study, scientific and practical recommendations are developed to improve prosecutorial supervision.

Keywords: shadow economy, prosecutorial supervision, rule of law, economic crimes, tax control, corruption, digital economy.

Yashirin iqtisodiyot — bugungi kunda dunyo mamlakatlari, shu jumladan O'zbekiston iqtisodiyoti uchun eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Iqtisodiy adabiyotda bu tushuncha ishtirokchilar tomonidan oshkora olib borilmaydigan, davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan, soliqlar to'lanmaydigan, rasmiy statistikada qayd etilmaydigan iqtisodiy faoliyat turlari sifatida ta'riflanadi. Dunyo miqyosida globallashuv va kompyuter transformatsiya jarayonlari jadallashgan bir vaqtda, har qanday davlatning iqtisodiy xavfsizligiga to'g'ri keladigan zarardan biri — yashirin iqtisodiyot bo'lib qolmoqda. Yashirin milliy davlat budjetiga tushumlarning kamayishiga, balki adolatli ijtimoiy muhitning paydo bo'lishiga, korrupsiyaning ildiziga va ijtimoiy tengsizlikning chuqur rivojlanishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy tizim, “soyadagi” iqtisodiy faoliyatni huquqiylashtirish va ishlab chiqarish maydoniga olib chiqish davlat siyosatining mustahkam yo‘nalishlaridan biri etib belgilash.

Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda huquqni himoya qiluvchi organlar, nazorat organlari, prokuratura organlari alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, qonun hujjatlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirish – iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashning kafolatidir.

Prokuratura organlari tomonidan o‘tkazilayotgan tahlillar va nazorat nazorati soliqdan bo‘yin tovlash, daromadli tadbirkorlik, valyuta qimmatliklarining qonunga xilof muomalasi kabi yashirin iqtisodiyotning turli ko‘rinishlarini va ularga chek qo‘yishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi tadqiqotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda yashirin iqtisodiyot ulushi YaIMning 30–40 foizini tashkil etishi mumkin¹. O‘zbekistonda ham bu ko‘rsatkich yuqori bo‘lib, tahlillar xizmatlar, qurilish va sanoat sohalarida o‘nlab trillion so‘mlik mahsulot “soya”da qolayotganini ko‘rsatmoqda².

Mamlakatimizda ham yashirin iqtisodiyot ko‘lamini aniqlash va qisqartirish bo‘yicha ko‘plab islohotlar amalga oshirilib, ushbu dolzarb muammo kun tartibida bo‘lib turibdi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 2021-yil 10-sentyabrdagi “Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va davlat bojxona xizmati organlari tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 24-martdagi “Jahon banki ishtirokidagi “Soliq ma‘muriyatchiligini isloh qilish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida “Yashirin iqtisodiyot” ulushini qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga oid vazifalar aniq belgilab berilgan.

O‘tgan davr mobaynida biznesni legallashtirish va soliq yukini pasaytirish evaziga yashirin iqtisodiyot hajmini pasaytirish maqsadida qo‘shilgan qiymat soliq stavkasi 3 foizga, ijtimoiy soliq stavkasi 50 foizga pasaytirildi. Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-tamoyillarini keskin qisqartirish va soddalashtirish biznesni soyadan chiqarish omillaridan hisoblanadi. Shu maqsadda 2024 yil 1 martdan 7 turdagi litsenziyalar bekor qilinmoqda, 12 turdagi ruxsat berish tartiblari birlashtirilmoqda va 3 xil faoliyat turi bo‘yicha litsenziyalash xabardor qilish tartibiga o‘tqazilmoqda.

Tahlillarimizga ko‘ra, 2019 yilda yashirin iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 52,11 foizni tashkil etgan bo‘lsa, olib borilgan islohotlar natijasida o‘tgan yilda uning ulushi 40 foizgacha qisqarganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunda asosan 2019-2022 yillarda olib borilgan soliq-bojxona islohotlari, korrupsiyaga qarshi kurashishdagi chora-tadbirlar, biznesni qo‘llab-quvvatlash va aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan maqsadli tashabbuslarning amalga oshirilganligi va raqamli transformatsiyalarning keng ko‘lamda joriy etilayotgani sabab bo‘lmoqda”³.

¹ Medina L., Schneider F. Shadow Economies Around the World: What Did We Learn Over the Last 20 Years? // IMF Working Paper No. 18/17. — Washington: International Monetary Fund, 2018. — 76 p.

² Gazeta.uz. Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga tergov yuritish vakolati beriladi. — 16.01.2024. URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/16/departament/>

³ Gulomov S. Yashirin iqtisodiyot: tahlil va taklif // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (UzA.uz), 16.01.2024. — [Elektron resurslar]. URL: https://uza.uz/oz/posts/yashirin-iqtisodiy-tahlil-va-taklif_562168(Murojaat sanasi: 18.04.2026).

Prokuror nazorati yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashning muhim davlat mexanizmi sifatida alohida o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, prokuratura organlari barcha idoralar, korxonalar va mansabdor shaxslar tomonidan qonunlar ijrosini nazorat qilish va qonunbuzarliklarni bartaraf etish vakolatiga ega⁴.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda prokuror nazoratining yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash amaliyotidagi muammolari yetarlicha o‘rganilmagan. Mazkur maqolaning **maqsadi** — O‘zbekiston sharoitida prokuror nazoratining yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash amaliyotini tahlil qilish, muammo va kamchiliklarni aniqlash hamda takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqishdan iborat.

VI. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha kuzatilmaydigan iqtisodiyot 2025- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida kuzatilmaydigan (uy xo‘jaliklari va jismoniy shaxslar faoliyati hamda yashirin) iqtisodiyotning yalpi qo‘shilgan qiymati hajmi 498 045,2 mlrd so‘mni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 26,9 % ni tashkil etdi. Shundan uy xo‘jaliklari va jismoniy shaxslar faoliyatining yalpi qo‘shilgan qiymati hajmi 351 040,1 mlrd so‘mni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 19,0 % ni tashkil etdi. Yashirin iqtisodiyotning yalpi qo‘shilgan qiymati hajmi esa 147 005,1 mlrd so‘mni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 7,9 % ni tashkil etdi⁵.

Yashirin iqtisodiyotni aniqlashda prokuror nazoratining asosiy vositalari quyidagilardir: *birinchidan* — tekshiruvlar o‘tkazish (rejali va rejadan tashqari); *ikkinchidan* — prokuror nazorati hujjatlari: protest, taqdimnoma, qaror, ariza, ogohlantiruv; *uchinchidan* — yashirin iqtisodiy operatsiyalarni aniqlash maqsadida tezkor-qidiruv tadbirlarini muvofiqlashtirish; *to‘rtinchidan* — jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish va jinoiy javobgarlikka tortish; *beshinchidan* — boshqa nazorat idoralari bilan ma‘lumot almashish.

“Olib borilgan tadqiqot natijasida prokuratura organlarining yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash sohasidagi faoliyati quyidagi asosiy natijalarni ko‘rsatdi:

Ko‘rsatkich 1. Davlat byudjetiga tushum: Yashirin iqtisodiyotga barham berish bo‘yicha ko‘rilgan choralar natijasida davlat budjetiga 22 trillion 300 milliard so‘m qo‘shimcha tushum undirildi.

Ko‘rsatkich 2. Huquqbuzarliklarni bartaraf etish: IJKD tomonidan ko‘rib chiqilgan davrda 10 000 dan ziyod huquqbuzarlik va jinoyat holatlari aniqlanib, ularning oldi olindi.

Ko‘rsatkich 3. Zarar undirilishi: Davlat va jamiyat manfaatlariga yetkazilgan 1 trillion 800 milliard so‘m zarar undirildi.

Ko‘rsatkich 4. Legallashtirish: 13 000 dan ortiq shaxsning faoliyati legallashtirilib, ular tadbirkor sifatida rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazildi.

Ko‘rsatkich 5. Qurilish sohasi: Qurilish korxonalarining 41% hisobotida faqat 1 nafar ishchisini ko‘rsatgani holda 4 trillion so‘mlik ishlarni bajargan .

Prokurorlik tekshiruvlarining tarmoqlar bo‘yicha taqsimoti tahlili quyidagi manzarani ko‘rsatdi: qurilish sohasi — 28%; savdo va xizmatlar — 24%; qishloq xo‘jaligi — 18%;

⁴ O‘zbekiston Respublikasining "Prokuratura to‘g‘risida"gi Qonuni. 09.12.1992-y. — Milliy qonunchilik bazasi. URL: <https://lex.uz/mact/105533>

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti: 2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun (dastlabki ma‘lumotlar). Press-reliz. — E‘lon qilish sanasi: 26.01.2026-y. — VI-bo‘lim: O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha kuzatilmaydigan iqtisodiyot. — 8-b. — URL: <https://stat.uz>

farmatsevtika va alkogol-tamaki — 16%; moliya va kredit sohasi — 14%. Ushbu ma'lumotlar iqtisodiyotning qaysi tarmoqlarida yashirin faoliyat eng ko'p tarqalganligini aniq ifodalaydi"⁶.

Yashirin iqtisodiyotni aniqlashdagi asosiy muammolar

Muammo 1: Raqamlashtirish darajasining pastligi. Yashirin iqtisodiy operatsiyalarni aniqlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish hali yetarli darajada emasligi aniqlandi.

Ekspert so'rovnomasida ishtirok etgan prokurorlik xodimlarining 67 foizi ma'lumotlar bazalarining bir-biri bilan integratsiya qilinmaganligi muammo ekanligini ta'kidledi. "Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli iqtisodiyotning tez rivojlanishi, transchegaraviy tranzaksiyalar va kriptovalyutalarning kengayishi an'anaviy nazorat samaradorligini pasaytirmoqda"⁷.

Muammo 2: Idoralararo muvofiqlashuv zaifligi. Prokuratura, Soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi va Moliya vazirligi o'rtasidagi ma'lumot almashish tizimi hali yetarlicha tizimga solinmagan. Tadqiqot davomida so'ralgan prokurorlik xodimlarining 71 foizi idoralararo muvofiqlashuv muammosi samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatayotganini ta'kidledi. "Ilmiy adabiyotda ham ta'kidlanishicha, iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashda barcha nazorat va tartibga solish organlari kuchlarini birlashtirish shart"⁸.

Muammo 3: Ixtisoslashgan kadrlar yetishmasligi. Yashirin iqtisodiyotni aniqlash uchun prokurorlik xodimlaridan nafaqat huquqiy, balki chuqur iqtisodiy, moliyaviy va raqamli bilimlar talab qilinadi. Biroq, mavjud o'quv dasturlari bu talabni to'liq qondirolmayapti.

So'rovnomada qatnashgan prokurorlarning 58 foizi iqtisodiy jinoyatlar sohasida malaka oshirish ehtiyojini bildirishdi.

Muammo 4: Dalillar bazasini shakllantirish qiyinligi. Yashirin iqtisodiy faoliyat ko'rinmas shaklga ega bo'lib, uning turlari doimiy o'zgaruvchanlik, murakkablashib borish, nazorat bosqichlarini chetlab o'tish kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi⁹. Bu esa prokurorlik tekshiruvlarida yetarli dalillar bazasini shakllantirish jarayonini qiyinlashtiradi.

Muammo 5: Korrupsiya va yashirin iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlik. Korrupsiya va yashirin iqtisodiyot o'rtasida chambarchas aloqa mavjud bo'lib, ular ma'muriy to'siqlardan iborat umumiy ildizlarga ega va iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi asosiy kuchlar hisoblanadi¹⁰. Bu holat prokurorlik organlarining nazorat funksiyasini amalga oshirishini sezilarli darajada qiyinlashtiradi.

Muammo 6: Qonunchilik bazasidagi bo'shliqlar. "Tadqiqot natijalarining tahlili yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilikda raqamli iqtisodiyot, kriptovalyuta va transchegaraviy tranzaksiyalar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi normalar etishmasligi muammosini ko'rsatdi"¹¹

Muammo 2: Idoralararo muvofiqlashuv zaifligi. Prokuratura, Soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi va Moliya vazirligi o'rtasidagi ma'lumot almashish tizimi hali yetarlicha

⁶ President.uz. Prokuratura organlari xodimlari bilan uchrashuvdagi nutq. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8849> (murojaat: 15.01.2025).

⁷ Eurasian Journal of Academic Research. Blokcheyn texnologiyasining soliq ma'muriyatchiligiga ta'siri. — 2025. — Vol. 5, No. 9. URL: <https://in-academy.uz/index.php/ejar/issue/view/1211>

⁸ Konovalenco S.A., Trofimov M.N. Prestupleniya ekonomicheskoy napravlenosti v kreditnoy sfere // Tenevaya ekonomika. — 2022. — №1. URL: <https://1economic.ru/lib/113728>

⁹ UzA.uz. Yashirin iqtisodiyot: tahlil va taklif. — 2024. URL: https://uza.uz/oz/posts/yashirin-iqtisodiyot-tahlil-va-taklif_562168

¹⁰ O'sha manba.

¹¹ Ergashev R. O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot: sabablari va bartaraf etish yo'llari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2020.

tizimga solinmagan. Tadqiqot davomida so‘ralgan prokurorlik xodimlarining 71 foizi idoralararo muvofiqlashuv muammosi samaradorlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatayotganini ta‘kidladi.

Ilmiy adabiyotda ham ta‘kidlanishicha, iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashda barcha nazorat va tartibga solish organlari kuchlarini birlashtirish shart ¹².

Muammo 3: Ixtisoslashgan kadrlar yetishmasligi. Yashirin iqtisodiyotni aniqlash uchun prokurorlik xodimlaridan nafaqat huquqiy, balki chuqur iqtisodiy, moliyaviy va raqamli bilimlar talab qilinadi. Biroq, mavjud o‘quv dasturlari bu talabni to‘liq qondirolmayapti.

So‘rovnomada qatnashgan prokurorlarning 58 foizi iqtisodiy jinoyatlar sohasida malaka oshirish ehtiyojini bildirishdi.

Muammo 4: Dalillar bazasini shakllantirish qiyinligi. Yashirin iqtisodiy faoliyat ko‘rinmas shaklga ega bo‘lib, uning turlari doimiy o‘zgaruvchanlik, murakkablashib borish, nazorat bosqichlarini chetlab o‘tish kabi xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Bu esa prokurorlik tekshiruvlarida yetarli dalillar bazasini shakllantirish jarayonini qiyinlashtiradi.

Muammo 5: Korrupsiya va yashirin iqtisodiyot o‘rtasidagi bog‘liqlik. Korrupsiya va yashirin iqtisodiyot o‘rtasida chambarchas aloqa mavjud bo‘lib, ular ma‘muriy to‘siqlardan iborat umumiy ildizlarga ega va iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi asosiy kuchlar hisoblanadi. Bu holat prokurorlik organlarining nazorat funksiyasini amalga oshirishini sezilarli darajada qiyinlashtiradi.

Muammo 6: Qonunchilik bazasidagi bo‘shliqlar. Tadqiqot natijalarining tahlili yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilikda raqamli iqtisodiyot, kriptovalyuta va transchegaraviy tranzaksiyalar bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi normalar etishmasligi muammosini ko‘rsatdi.

Fikrimizcha, quyidagi takliflar yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga xizmat qiladi:

– soliq bojxona sohasidagi islohotlarda soliq majburiyatlarini to‘liq bajarayotgan soliq to‘lovchilarni rag‘batlantirishning shaffof tizimini yo‘lga qo‘yish;

– soliq va bojxona tartib-taomillarini to‘liq raqamlashtirish orqali byurokratik to‘siqlarga barham berish;

– mehnat munosabatlari sohasidagi normativ islohotlarni amalga oshirish bunda mehnat munosabatlariga oid qonun hujjatlarining muvofiqligini aniqlash uchun muntazam komplayens-nazoratni joriy qilish;

– xodimlarning ijtimoiy ta‘minot tizimlarini takomillashtirish, badallardan qochish uchun shaxslarning norasmiy iqtisodiyotda ishtirok etishdan qaytaruvchi choralarni qo‘llash;

– mehnat munosabatlariga rioya qilmagan ish beruvchilar yoki xodimlarga qat‘iy jazo qo‘llash, ish beruvchilarning qonuniy faoliyat yuritishini osonlashtirish uchun tartib-qoidalarni soddalashtirish, to‘liq va shaffof nazorat qilinuvchi xodimlar boshqaruv tizimini raqamlashtirish, korxonalarda KPI tizimlarini joriy qilinishini rag‘batlantirish va uni adolatli faoliyat yuritish mexanizmlarini tartibga solish;

– naqd pul bilan savdo qilishda maksimal chegaraviy qiymatni belgilash;

shaffof va kuzatilishi mumkin bo‘lgan moliyaviy operatsiyalarni yaratish uchun blokcheyn kabi texnologiyadan foydalanish;

¹² Konovalenco S.A., Trofimov M.N. Prestupleniya ekonomicheskoy napravlenosti v kreditnoy sfere // Tenevaya ekonomika. — 2022. — №1. URL: <https://1economic.ru/lib/113728>

– fuqarolarning moliyaviy, huquqiy va IT savodxonligini oshirishni ommalashtirish, OAV va ijtimoiy tarmoq platformalari orqali yashirin iqtisodiyotning salbiy oqibatlarini, zararini va unga qarshi kurashishning afzalligini targ‘ib qilish;

– yashirin iqtisodiy faoliyat haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilish tizimi huquqiy asoslarini yaratish;

– xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining to‘g‘ri yuritilishini nazorat qilish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish, bunda ichki nazorat qoidalarini qayta ko‘rib chiqish.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda prokuror nazoratining amaliyoti va muammolari empirik ma‘lumotlar asosida kompleks tahlil qilindi.

Olingan natijalar quyidagi uch asosiy xulosaga olib keladi:

Birinchidan, O‘zbekistonda prokuror nazoratining yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash tizimidagi o‘rni normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlangan bo‘lib, IJKD faoliyati amaliy natijalari (10 mingdan ziyod huquqbuzarliklarni aniqlash, 22,3 trillion so‘m qo‘shimcha tushum) bu yo‘nalishda muhim yutuqlar qo‘lga kiritilganligini ko‘rsatmoqda.

Ikkinchidan, raqamlashtirish yetishmasligi, idoralararo muvofiqlashuv zaifligi, ixtisoslashgan kadrlar tanqisligi, dalillar bazasini shakllantirish qiyinligi va qonunchilik bo‘shliqlari prokuror nazoratining samaradorligini pasaytiruvchi tizimli muammolar sifatida aniqlandi.

Uchinchidan, yashirin iqtisodiyotni bartaraf etishda prokuror nazoratini samarali tashkil qilish uchun yagona raqamli platforma yaratish, ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash tizimini kuchaytirish, idoralararo protokolni huquqiy jihatdan mustahkamlash va raqamli iqtisodiyotni tartibga soladigan qonunchilikni zamonaviylashtirish zarur.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun sun‘iy intellekt texnologiyalarining prokuror nazoratidagi imkoniyatlarini o‘rganish, shuningdek, O‘zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlari prokurorlik amaliyotini qiyosiy tahlil qilish istiqbolli yo‘nalish sifatida tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Isroilov B.I., Ibragimov B.B. va boshq. Vliyanie tenevoy ekonomiki na ekonomicheskuyu bezopasnost strany // Tenevaya ekonomika. — 2021. — №4. URL: <https://1economic.ru/lib/113690>
2. Medina L., Schneider F. Shadow Economies Around the World: What Did We Learn Over the Last 20 Years? // IMF Working Paper No. 18/17. — Washington: IMF, 2018. — 76 b.
3. Gazeta.uz. Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga tergov yuritish vakolati beriladi. — 16.01.2024. URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/16/departament/>
4. O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni (1992-yil 9-dekabr, 3PY-880 tahririda 2023-yil). — Milliy qonunchilik bazasi. URL: <https://lex.uz/mact/105533>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni: Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti faoliyati to‘g‘risida. — Toshkent, 2019.
6. Schneider F., Enste D.H. Shadow Economies: Size, Causes, and Consequences // Journal of Economic Literature. — 2000. — 38(1). — B. 77–114.
7. Medina L., Schneider F. Ko‘rsatilgan manba. — 2018.

8. Vinokurov Yu.E. (tahrir). Prokurorskiy nazor: uchebnik. — M.: Yurite, 2021. — 368 b.
9. But N.D. Dinamika sostoyaniya zakonnosti v ekonomicheskoy sfere // Yurist.— 2022.№7.URL:https://www.consultant.ru/law/podborki/prokurorskiy_nazor_v_sfere_jekonomiki/
10. Ergashev R. O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot: sabablari va bartaraf etish yo'llari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2020. — №3.
11. Isroilov B.I. va boshq. Ko'rsatilgan manba.
12. President.uz. Prokuratura organlari xodimlari bilan uchrashuvdagi nutq. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8849> (murojaat: 15.01.2025).
13. Eurasian Journal of Academic Research. Blokcheyn texnologiyasini soliq ma'muriyatchiligiga joriy etish // Vol. 5, No. 9. — 2025. URL: <https://in-academy.uz/index.php/ejar/issue/view/1211>
14. Konovalenko S.A., Trofimov M.N. Prestupleniya ekonomicheskoy napravlenosti v kreditnoy sfere // Tenevaya ekonomika. — 2022. — №1.
15. Uza.uz. Yashirin iqtisodiyot: tahlil va taklif. — 2024. URL: https://uza.uz/oz/posts/yashirin-iqtisodiyot-tahlil-va-taklif_562168
16. President.uz. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va korrupsiyaning oldini olish yig'ilishi materiallari. — 27.07.2020. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/3740>
17. Malikov A., Zakirova S.A. Yashirin iqtisodiyot tushunchasi, turlari va shakllanish omillari // GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT. — 2025. — 3(8). DOI: 10.5281/zenodo.16918322